

O'QUVCHILARDA YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Muzaffarova Shahnoza Erkin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

264-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchisi

muzaffarovashahnoza67@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma nutqni rivojlantirishning zarurati, bugungi kundagi muammo va yechimlar ko'rsatilgan. Xulosalar, maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan. Natijalar tahlil qilinib, tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, nutqiy ko'nikmalar, savodxonlik, maktab darsliklari, tajriba-sinov.

Аннотация: В статье подчеркивается необходимость развития письменной речи, актуальные проблемы и пути их решения. Выводы основаны на результатах эксперимента, проведенного среди школьников. Результаты были проанализированы и даны соответствующие инструкции.

Ключевые слова: письменная речь, речевые навыки, грамотность, школьные учебники, экспериментальная проверка.

Abstract: This article shows the need for the development of written speech, current problems and solutions. The conclusions are based on the results of an experiment conducted among schoolchildren. The results are analyzed and appropriate recommendations are given.

Keywords: written speech, speech skills, literacy, school textbooks, experiment.

Ma'lum bir kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun, avvalo, til bilish, so'ngra yozma muhitda fikrni aniq va qisqa ifoda eta olish ham muhimdir. Shu bois, yoshlarning savodxonligini oshirish, ularni xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun poydevor yaratadi. Ta'lim tizimida yozish ko'nikmasini o'stirish — milliy tilimiz va madaniyatimizni asrash, raqamli hamda global dunyoda o'z o'rnini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Maktab ta'limida yozish ko'nikmasining yetarlicha rivojlanmasligi o'quvchilarda o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki nutq kabi kompetensiyalarning ham mustahkam bo'masligiga sabab bo'ladi. Shuningdek, yozma nutq yaratuvchisida unga ko'maklashuvchi omillarning yo'qligi, ya'ni tinglovchining reaksiyasi, matnda nutq ohanglaridan foydalana olmaslik kabi jihatlar bu muloqot turining naqadar aniq, to'g'ri, keng va mantiqli, shu bilan birga, grammatik qoidalarga amal qilgan holatda bo'lishini talab etadi. Kundalik muloqotning ajralmas qismiga aylangan maktub, elektron pochta, rasmiy hujjat, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar – hammasi yozma nutq ko'nikmasi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalari bolalarda maktab davrigacha qisman shakllanib ulguradi. O'qib tushunish va yozish ko'nikmasi esa, maktabda keyinchalik oliy o'quv yurtlari va butun umr davomida rivojlanib boradigan jarayondir. Demak, yozish ko'nikmasining poydevori maktabda qo'yilar ekan, biz asosiy urg'uni ona tili darsliklari va shu sohadagi pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratishimiz kerak. Zamonaviy darsliklarida bu ko'nikmani rivojlantirishga kreativ tarzda yondashilgan. Masalan, Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 6-sinf ona tili darsligida matn yozish, matnlarni tahlil qilish, o'zi yoki sinfdoshi yozgan matnni tahrir qilish, qayta yozish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Alohida bir dars tahlil va tahrir soati sifatida belgilangan [1]. 7-sinf darsligida esse yozish va uni tahrir qilish, qayta tahrir, tahlil va tahrir, imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolar ustida ishlash, jamoaviy tahrir bo'yicha topshiriqlar berilgan [2]. 10-sinf darsligidan esa matn ustida ishlash, uni kengaytirish yoki qisqartirish, matnni qayta yozish, imlo va punktuatsiya, qo'shimcha va so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarni to'g'rilash, mantiqiy xatolarni bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar,

nisbatan batafsil didaktik ma'lumotlar o'rin olgan [3]. Ijod maktablarining 7-sinflari uchun ishlab chiqilgan "Ona tili" darsliklarida esa tahrir mavzusiga yanada keng o'rin berilgan. "Tadqiqot va tahrir" nomli alohida bir bob so'z, jumla va matn bilan ishlash, adabiy tahrir malakasini shakllantirishga qaratilgan [4].

Yangi avlod "Ona tili" darsliklarida bunday mashq va topshiriqlarning berilishi, albatta, e'tirofga loyiq. Biroq o'quvchilarda yozma nutqni to'laqonli shakllantirishda buning o'zi kamlik qiladi. Bu ko'nikmani shakllantirish ona tili va adabiyot ustozlaridan kuchli metodik va nazariy bilim va shaxsiy tajriba talab etadi.

Toshkent shahar 264-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quvchilar bilan yozma savodxonlik, matn yaratish, matnni davom ettirish, esse yozish va turli yozma topshiriqlar bo'yicha ishlandi va ularning bu borada bilim sifati ancha pastligi aniqlandi. Bu jihat, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqdagi chatlarda, hattoki nazorat imtihonlarida ham yaqqol ko'zga tashlangach, IV chorak mobaynida o'quvchilar bilan tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov olib borilgan hudud: 264-sonli maktab

Ishtirokchilar soni: 22 nafar

Ishtirokchilar yoshi: 17 yosh

Tajriba-sinov material: "Texnologiyalar taraqqiyoti: imkoniyat yoki xavf" mavzusida matn

Tajriba-sinov o'quvchilarda imloviy savodxonlik va matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib unga 10 – "V" sinf o'quvchilari qamrab olindi. Tajriba jami 22 ta o'quvchini qamrab oldi. IV chorak boshida ularga "Texnologiyalar taraqqiyoti: imkoniyat yoki xavf" mavzusida matn tuzish vazifasi yuklatildi. Sinov natijalari Milliy o'quv dasturida belgilangan baholash mezoni bo'yicha tahlil qilindi va o'quvchilarda imloviy, punktuatsion va uslubiy xatoliklar nihoyatda ko'pligi, shuningdek, matn qurilishi bilan bog'liq bilimlarning yetarli emasligini ko'rsatdi. (1-jadval)

Imloviy xatoliklar	86,4% (19 ta o‘quvchida)
Punktuatsion xatoliklar	72,7% (16 ta o‘quvchida)
Uslubiy xatoliklar	45,5% (10 ta o‘quvchida)
Matn qurilishidagi xatolik	40,9% (9 ta o‘quvchida)

Shundan so‘ng, har bir ona tili darsiga kirishda imlosi qiyin bo‘lgan 5 ta so‘z o‘quvchilarga o‘qib eshittirildi va ulardan bu so‘zlarni ketma-ketlikda daftarlariga yozishlari talab qilindi. Yozib bo‘lgach shu so‘zlarning to‘g‘ri yozilgan variantini o‘quvchilarga taqdim etilib, o‘zi yozgan so‘zning yoniga yopishtirishi so‘raldi. Shuningdek, sinfdan o‘z xatolarini ruchka yordamida tuzatishlari kerakligi tushuntirildi, o‘quvchilar o‘zlarini baholab bo‘lishgach uyga vazifaga qo‘shimcha tarzda shu so‘zlarni ishtirok ettirib matn tuzish topshrig‘i ham berildi. Har bir matn o‘qilib o‘quvchilardagi xato va kamchiliklar ular bilan birgalikda bartaraf etib borildi. IV chorakdagi jami 15 soat dars ushbu tajriba uchun qamrab olindi va bunda imlosi qiyin bo‘lgan 75 ta so‘z (h va x imlosi, o‘zlashma so‘zlar imlosi va h.k) hamda 15 ta matn o‘quvchilarga yozdirildi. Shuningdek, ularda matnni kirish, asosiy qism va xulosaga ajratib yozish, shevaga xos so‘zlardan yozma nutqda foydalanmaslik, punktuatsiya va orfografiya tamoyillariga amal qilish, uslubiy xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, tasviriy, muhokama va hikoya matnlari tuzish kabi ko‘nikmalar birma- bir shakllantirib borildi. Chorak yakunida ularga “Kelajagimni qanday tasavvur qilaman” nomli matn tuzish vazifasi yuklatildi va natijalar qayta hisoblandi. (2-jadval)

Imloviy xatoliklar	31,8% (7 ta o‘quvchida)
Punktuatsion xatoliklar	22,7% (5 ta o‘quvchida)
Uslubiy xatoliklar	13,6% (3 ta o‘quvchida)
Matn qurilishidagi xatolik	4,5% (1 ta o‘quvchida)

Ko‘rib turganingizdek, 2 oy mobaynida o‘quvchilarning yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan tajribamiz ulardagi imloviy xatoliklarni 54,6 foizga, punktuatsion xatoliklarni 50 foizga, uslubiy xatoliklarni 31,9 foizga matn qurilishiga oid ko‘nikmalarni esa 36,4 foizga yaxshiladi. Shuningdek, ularda nafaqat matn, balki esse insho kabi yozma ishning boshqa turlarini yozishda ham o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Yozma nutq – bu o‘rgatiladigan va doimiy mashq orqali shakllantiriladigan ko‘nikmadir. Unda o‘quvchining bilim saviyasi, mantiqiy fikrlash darajasi va estetik didi namoyon bo‘ladi [5]. Demak, yozish ko‘nikmasini shakllantirish – faqat til o‘qitishnigina emas, balki o‘quvchilarning mantiqiy izchillikda o‘z fikrini ifoda etishi, mustaqil fikrlashi, adabiy me‘yorlarga rioya qilgan holda yozma muloqotga kirisha olishini ta‘minlaydi. O‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, tizimli va maqsadli yondashuv orqali o‘quvchilarda yozish ko‘nikmasi sezilarli darajada rivojlanadi. Ayniqsa, imlo va matn yaratishni o‘quvchilarga o‘rgatib borish, tahlil-tahrir mashqlarini muntazam qo‘llash natijasida o‘quvchilarning nafaqat xatolari kamayadi, balki ularning yozma nutqqa bo‘lgan ishonchi ortadi.

Yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishda ona tili darslarining imkoniyatidan to‘liq foydalanish, zamonaviy darsliklar bilan ishlash, o‘quvchilarning ijodiy fikrini rag‘batlantiruvchi topshiriqlarni qo‘llash, individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlar izchil davom ettirilsa, o‘quvchilarning savodxonligi, fikrlash madaniyati va yozma muloqotga tayyorligi yanada yuqori bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224 b
2. Ona tili [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224 b

3. Ona tili [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b

4. Ona tili (2-qism) [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2023. – 160 b

5. Zokirova M. “Yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari” // filologiya fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.